Keywords: small business, non-standard employment, remote work, part-time employment, platform work, self-employment, digital labor market, social protection.

KIRISH

Zamonaviy mehnat bozorida nostandart bandlik shakllari global raqobat, raqamlashtirish, xizmatlar iqtisodiyotining kengayishi hamda ish beruvchilarning xarajatlar tuzilmasini moslashtirish ehtiyoji ta'sirida jadal sur'atlarda tarqalmoqda. Xalqaro mehnat tashkiloti nostandart bandlikni vaqtinchalik ish, qisman va chaqiruv asosidagi ish, ko'p tomonlama mehnat munosabatlari hamda bog'liq o'zini o'zi band qilish kabi shakllarni qamrab oluvchi mehnat rejimlari sifatida ta'riflaydi [1]. Eurofound tahlillarida esa qisman ish, vaqtinchalik shartnomalar va platformali mehnat Yevropada eng tez sur'atlarda kengayayotgan shakllar qatoriga kiritilgan [2].

Kichik biznes uchun mazkur shakllarning ahamiyati ikki tomonlama bo'lib, bir tomondan, ular mehnat xarajatlarini talabga moslashtirish, mavsumiylik va loyiha asosidagi ishlarni qoplash hamda yuqori malakali mutaxassislarni doimiy shtatsiz jalb qilish imkonini beradi. Ikkinchi tomondan esa, huquqiy noaniqlik, ijtimoiy himoyaning yetarli emasligi va norasmiy bandlikka sirg'alish xavfi kichik biznesning uzoq muddatli mahsuldorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin [1], [3]. Shu bois ilg'or xorij tajribasini mexanik tarzda ko'chirish emas, balki uni institutsional, raqamli va ijtimoiy omillarni inobatga olgan holda moslashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston uchun ushbu mavzuning dolzarbligi yanada yuqori. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda kichik biznesning jami bandlikdagi ulushi 74,5 foizni, ushbu sektorda band bo'lganlar soni esa 10 628,7 ming kishini tashkil etgan [13], [14]. 2025-yilda kichik biznesning YaIMdagi ulushi 52,2 foizga yetgan, 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra esa mamlakatda 1 201,6 mingta faol kichik biznes subyekti qayd etilgan [12], [15]. Shu bilan birga, 2025-yil yakunlariga ko'ra, aholi umumiy daromadlarida o'zini o'zi band qilishdan olinayotgan daromad ulushi 34,0 foizni tashkil etgani mehnatning gibrid va moslashuvchan shakllari iqtisodiyotdagi rolini yaqqol namoyon etadi [16].

Maqolaning maqsadi — nostandart bandlik shakllaridan foydalanish bo'yicha ilg'or xorij tajribalarini umumlashirish, ularning kichik biznes rivojiga ta'sir mexanizmlarini aniqlash hamda O'zbekiston sharoitida amaliy qo'llash yo'nalishlarini ishlab chiqishdan iborat.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro adabiyotlarda nostandart bandlikni tahlil qilishda ikki asosiy yo'nalish ustuvor hisoblanadi: birinchisi — mehnat bozori moslashuvchanligi va ish o'rinlari yaratilishi nuqtayi nazaridan, ikkinchisi esa — munosib mehnat, teng huquq va ijtimoiy himoya nuqtayi nazaridan. XMT hisobotiga ko'ra, nostandart bandlikni tartibga solishda to'rt tayanch masala — mehnat munosabatlarini to'g'ri kvalifikatsiya qilish, teng munosabatni ta'minlash, ijtimoiy himoya hamda jamoaviy muzokaralar imkoniyatlari — markaziy ahamiyat kasb etadi [1].

Eurofound tadqiqotlarida raqamli platformalar, qisman bandlik va o'zini o'zi band qilishning yangi shakllari xizmatlar iqtisodiyoti, logistika, kreativ industriya va professional xizmatlar sohalarida yuqori sur'atlarda o'sib borayotgani qayd etilgan [2]. Yevropada platformali mehnatni tartibga solish bo'yicha so'nggi yondashuvlarda moslashuvchanlik bilan bir qatorda algoritmlar shaffofligi, ish maqomini to'g'ri belgilash hamda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda [3].

OECD tadqiqotlari esa kichik biznesning raqobatbardoshligi nuqtayi nazaridan raqamli transformatsiyaga katta e'tibor qaratadi. OECDning "The Digital Transformation of SMEs" hisobotida raqamlashtirish kichik biznesning mahsuldorligi, bozorga kirishi va innovatsion rivojlanishi uchun asosiy drayver sifatida baholanadi [4]. 2024-yilgi OECD D4SME so'rovi natijalariga ko'ra, raqamli vositalardan foydalanish xarajatlarni kamaytirish, yangi daromad manbalarini yaratish hamda ish jarayonlarini moslashtirishda muhim rol o'ynaydi. Biroq bilim yetishmasligi va raqamli ko'nikmalar darajasining pastligi asosiy to'siqlardan biri bo'lib qolmoqda [5].

O'zbekiston bo'yicha OECD tahlilida hukumat raqamlashtirishni iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning muhim omili sifatida e'tirof etgani qayd etiladi. Shu bilan birga, xususiy sektor, ayniqsa kichik biznesda raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish, axborotga kirish imkoniyatlarini kengaytirish va qo'llab-quvvatlovchi ekotizimni shakllantirish zarurligi ta'kidlanadi [6]. Mazkur holat xorijiy tajribani faqat mehnat munosabatlari shakli sifatida emas, balki institutsional muhit, raqamli davlat xizmatlari va ijtimoiy himoya mexanizmlari bilan uzviy bog'liq holda o'rganish zaruratini asoslaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada qiyosiy-institutsional tahlil, rasmiy statistik ma'lumotlarni dinamik tahlil qilish, normativ-huquqiy hujjatlarni mazmunan tahlil etish hamda natijalarni jadval va rasmlar orqali umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tahlil bir necha bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqichda XMT, OECD, Eurofound, Yevropa Komissiyasi, Niderlandiya hukumati, Estoniyaning davlat raqamli infratuzilma operatori — RIK hamda OECDning Janubiy Koreya bo'yicha hisobotlari asosida ilg'or xorijiy amaliyotlar tizimlashtirildi [1]–[11].

Ikkinchi bosqichda O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining 2024–2025-yillarga oid ochiq rasmiy ma'lumotlari tahlil qilindi. To'g'ridan-to'g'ri nostandart bandlikning barcha shakllari bo'yicha yagona yillik agregat statistik ma'lumotlar e'lon qilinmagani sababli tadqiqotda proksi ko'rsatkichlardan foydalanildi: kichik biznesning jami bandlikdagi ulushi, kichik biznesda bandlar soni, YalMdagi ulushi, faol subyektlar soni hamda aholi daromadlarida o'zini o'zi band qilishdan olinayotgan daromad ulushi [12]–[16].

Uchinchi bosqichda O'zbekistonning amaldagi huquqiy muhiti — yangi Mehnat kodeksidagi moslashuvchan ish vaqti va masofaviy mehnat normalari, shuningdek, o'zini o'zi band qilgan shaxslarni ro'yxatdan o'tkazish tartibi — tahlil qilindi [17]–[19]. Shundan kelib chiqib, xorijiy tajribani O'zbekiston sharoitiga selektiv moslashtirish mexanizmi ishlab chiqildi. Tadqiqotning asosiy cheklovi shundan iboratki, platformali mehnat, outsorsing yoki loyiha asosidagi ishga oid milliy mikrodarajadagi ochiq statistik ma'lumotlar cheklangan. Shu bois xulosalar rasmiy makro'rsatkichlar hamda institutsional tahlil uyg'unligiga asoslanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda kichik biznes va nostandart bandlikdan foydalanish zarurati: rasmiy statistik manzara

O'zbekistonda kichik biznes mehnat bozorining asosiy tayanch segmenti hisoblanadi. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda kichik biznesning jami bandlikdagi ulushi 74,5 foizni tashkil etgan [13]. Ushbu sektorda band bo'lganlar soni ham 2024-yilda 10 628,7 ming kishiga yetgan [14]. Mazkur ko'rsatkichlar mehnat bozorida har qanday institutsional o'zgarishlar, jumladan, nostandart bandlik shakllarini huquqiy va tashkiliy jihatdan tartibga solish, avvalo, kichik biznes faoliyati samaradorligiga bevosita ta'sir qilishini ko'rsatadi.

YalMdagi ulush ko'rsatkichi ham ushbu tendensiyani tasdiqlaydi: 2024-yilda kichik biznesning YalMdagi ulushi 53,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yil yakunlariga ko'ra ushbu ko'rsatkich 52,2 foizni tashkil etgan [15]. 2025-yil 1-iyul holatiga ko'ra faol kichik biznes subyektlari soni 1 200,4 mingtani, har 1000 aholiga to'g'ri




keladigan soni esa 31,8 tani tashkil etgan [12]. Ushbu ko'rsatkichlar kichik biznesda xodimlar tarkibi, ish vaqti va shartnomaviy munosabatlarni talabga tezkor moslashtirish ehtiyoji yuqori ekanini anglatadi.

Daromadlar tuzilmasi nostandart bandlikning iqtisodiy ahamiyatini yanada yaqqol namoyon etadi. Milliy statistika qo'mitasining 2025-yil yanvar–dekabr oylari bo'yicha ma'lumotlariga ko'ra, aholi umumiy daromadlarida o'zini o'zi band qilishdan olinayotgan daromad ulushi 34,0 foizni tashkil etgan [16]. Demak, mustaqil mehnat, qisman bandlik va fuqarolik-huquqiy munosabatlarga yaqin shakllar allaqachon uy xo'jaliklari daromadlari tarkibida muhim manbaga aylangan (1-jadval).

1-jadval
O'zbekistonda kichik biznes va nostandart bandlikning rivojlanishini tavsiflovchi asosiy rasmiy ko'rsatkichlar¹

Ko'rsatkich	Qiymat	Tahliliy izoh
Kichik biznesning jami bandlikdagi ulushi, 2024	74,5 %	Nostandart bandlikni tartibga solish mehnat bozorining asosiy segmentiga taalluqli ekanini ko'rsatadi.
Kichik biznesda bandlar soni, 2024	10 628,7 ming	Kichik biznes uchun moslashuvchan mehnat rejimlari keng qamrovga ega ekanini anglatadi.
Kichik biznesning YalMdagi ulushi, 2025	52,2 %	Kichik biznes iqtisodiy o'sishning yarmidan ortig'ini shakllantirmoqda.
Faol kichik biznes subyektlari soni, 2025	1 201,6 ming	Loyiha, mavsumiy va platformali ishga ehtiyoj yuqori ekanini bildiradi.
Har 1000 aholiga to'g'ri keladigan faol kichik biznes subyektlari, 2025	31,8 ta	Kichik biznesning hududiy tarqalganini va moslashuvchan mexanizmlarga ehtiyoj mavjudligini ko'rsatadi.
Aholi umumiy daromadlarida o'zini o'zi band qilish ulushi, 2025	34,0 %	Nostandart bandlik va gibrid mehnat shakllari real iqtisodiy ahamiyat kasb etgan.

1-rasmda 2010–2024-yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining jami bandlikdagi ulushi dinamikasi keltirilgan. Ko'rinadiki, mazkur ulush 2010–2016-yillarda o'sish tendensiyasini namoyon etgan, keyingi yillarda esa 74–75 foiz atrofida barqarorlashgan. Ushbu holat kichik biznesning mehnat bozorida yetakchi mavqega ega ekanini, shuningdek, unda moslashuvchan ish shakllarini qonunchilik asosida to'g'ri yo'lga qo'yish milliy mehnat siyosati uchun strategik ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi (1-rasm).



1-rasm. Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami bandlikdagi ulushi, %, 2010–2024-yillar

¹ Manba: [12]–[16] asosida muallif ishlanmasi.



O'zbekistonning huquqiy muhitida ham nostandart bandlikni rasmiy maydonga olib chiqish bo'yicha muayyan asos yaratilgan. Yangi Mehnat kodeksida 193-moddada moslashuvchan ish vaqti rejimi, 452–456-moddalarda esa masofaviy mehnat nazarda tutilgan [17]. Bundan tashqari, 2020-yildagi PQ-4742-son qaror² hamda Vazirlar Mahkamasining 806-son qarori o'zini o'zi band qilgan shaxslarni ro'yxatga olish tartibini soddalashtirib, maxsus mobil ilovalar va QR-kodli tasdiqlash mexanizmlarini joriy etgan [18], [19]. Biroq ushbu normalarning kichik biznes amaliyotida samarali ishlashi uchun xorijiy tajribadagi institutsional yechimlarni inobatga olish zarur.

Xorijiy tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, nostandart bandlikning muvaffaqiyatli modellari faqat mehnat munosabatlari bilan cheklanmaydi; ular raqamli davlat xizmatlari, ijtimoiy himoya, soliq rejimi, oilaviy siyosat va kichik biznes (SME) ko'nikmalar siyosati bilan uyg'unlashgan holda yagona tizimni tashkil etadi.

Niderlandiya: qisman bandlik va mehnat-oila balansi modeli

Niderlandiya mehnat bozorida qisman bandlikni institutsionallashtirish bo'yicha eng ko'p muhokama qilinadigan misollardan biri hisoblanadi. Niderlandiya hukumati mehnat bozori siyosatida ishdan daromad olish, iqtisodiy barqarorlik, malaka rivoji hamda mehnat bozori o'zgarishlariga moslashuvchanlik o'rtasida muvozanatni ta'minlashni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi [7]. OECDning Niderlandiya bo'yicha maxsus hisobotida qisman ish faqat arzon ish kuchi sifatida emas, balki ish joyida moslashuvchanlikni ta'minlash vositasi sifatida baholanadi. Shu bilan birga, uni sifatli ish, teng imkoniyatlar va karyera rivoji bilan bog'lash zarurligi ta'kidlanadi [8].

Ushbu tajribadan O'zbekiston uchun chiqariladigan asosiy xulosa shundan iboratki, qisman bandlik vaqti yoki moslashuvchan ish grafiklari mehnat standartlaridan chetlashish sifatida emas, balki alohida huquqiy rejim sifatida e'tirof etilishi lozim. Ayniqsa, xizmatlar sohasi, ta'lim, kreativ industriya, buxgalteriya va onlayn xizmatlar sohalarida ushbu shakl kichik biznes xarajatlarini kamaytirish bilan birga, ayollar va yoshlar bandligini oshirish imkonini beradi.

Yevropa Ittifoqi: platformali mehnatni tartibga solish

Yevropa Komissiyasi ma'lumotlariga ko'ra, Yevropa Ittifoqi platformali mehnatda mehnat sharoitlarini yaxshilash va raqamli mehnat platformalarining barqaror o'sishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan faol yondashuvni amalga oshirmoqda. Komissiyaning "Future of Work" tashabbusi doirasida qayd etilishicha, 2024-yil dekabr oyida Platform Work Directive kuchga kirgan bo'lib, u platformali mehnatda ish sharoitlari va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishni yaxshilashni, shu bilan birga platforma iqtisodiyotining moslashuvchanlik va innovatsion imkoniyatlarini saqlab qolishni ko'zda tutadi [3].

Mazkur tajribaning O'zbekiston uchun ahamiyati shundaki, platformali mehnatni faqat self-employment yoki fuqarolik-huquqiy xizmat sifatida emas, balki ayrim holatlarda mehnat munosabatlari elementlariga ega bo'lgan gibrid shakl sifatida tan olish zarur. Ish maqomini avtomatik ravishda ish beruvchi foydasiga "o'zini o'zi band qilgan" deb belgilash emas, balki vazifaning doimiyliigi, platformaning nazorat darajasi, ish vaqti hamda haq to'lash mexanizmlarining xususiyatlarini inobatga olgan holda differensial yondashuvni qo'llash maqsadga muvofiq.

Estoniya: raqamli ro'yxatga olish va elektron imzo infratuzilmasi

Estoniya tajribasining o'ziga xosligi shundaki, nostandart bandlikni formallashtirishda davlatning raqamli infratuzilmasi ustuvor rol o'ynaydi. RIK ma'lumotlariga ko'ra, e-Business Register Estoniyadagi barcha yuridik shaxslar haqidagi rasmiy milliy portal bo'lib, u orqali kompaniyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'rish, hujjatlarni taqdim etish, yillik hisobotlarni yuborish hamda o'zgartirishlar kiritish mumkin; barcha arizalar Estonian ID-card, Smart-ID va Mobile-ID orqali imzolanadi [9]. Shuningdek, mazkur portal doirasida davlat tomonidan kichik biznes uchun mo'ljallangan e-Financials hisob-kitob dasturi ham taklif etiladi [10].

Ushbu modelning O'zbekiston uchun eng muhim sabog'i shundan iboratki, nostandart bandlik samaradorligi faqat huquqiy shaklning mavjudligi bilan emas, balki uning elektron ro'yxatga olish, elektron shartnomalar va hisob-kitob tizimlari bilan integratsiyalashuvi darajasi bilan belgilanadi. Masofaviy xizmatlar, frilans faoliyat, mikro-topshiriqlar va loyihaviy xizmatlarni yagona elektron reyestr, elektron shartnoma va to'lov tarixiga bog'lash ularni norasmiy mehnatdan rasmiy iqtisodiyotga olib chiqish imkonini beradi.

Janubiy Koreya: raqamli bandlik xizmatlari va ko'nikmalar siyosati

OECDning Janubiy Koreya bo'yicha tahliliga ko'ra, raqamlashtirish Koreya bandlik xizmatlari strategiyasiga chuqur singdirilgan. *Ministry of Employment and Labour (MOEL)* raqamli bandlik xizmatlarining umumiy strategiyasini belgilaydi, *Korea Employment Information Service (KEIS)* esa uni amaliy raqamli infratuzilma

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 08.06.2020 yildagi PQ-4742-son <https://lex.uz/docs/-/4849607>



va platformalar orqali rivojlantiradi. OECD hisobotida Koreyaning bandlik xizmatlarini raqamlashtirish darajasi ko'plab OECD va Yevropa Ittifoqi davlatlariga nisbatan ancha ilg'or ekani ta'kidlangan [11].

Mazkur tajriba O'zbekiston uchun shuni anglatadiki, nostandart bandlikni rivojlantirish faqat mehnat kodeksi normalari bilan cheklanmasdan, balki raqamli bandlik xizmatlari, elektron portfoliolar, malaka tasdiqlash tizimlari, qayta tayyorlash dasturlari hamda ish beruvchi va ijrochilarni moslashtiruvchi (*matching*) platformalar orqali qo'llab-quvvatlanishi lozim. Kichik biznes subyektlarining aksariyati doimiy HR bo'limiga ega emas; shu bois davlatning raqamli bandlik platformalari ular uchun tranzaksiya xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi (2-jadval).

2-jadval
Kichik biznesda nostandart bandlikdan foydalanish bo'yicha
ilg'or xorijiy tajribalarning qiyosiy tavsifi

Mamlakat/manba	Ustuvor shakl	Asosiy institutsional mexanizm	Kichik biznes uchun natija	O'zbekiston uchun asosiy saboq
Niderlandiya [7], [8]	Qisman ish vaqti, moslashuvchan grafik	Mehnat-oila balansi siyosati va huquqiy kafolatlar	Xarajatlarning moslashuvchanligi va yuqori mehnat ishtiroki	Qisman ish vaqtini teng huquqli alohida rejim sifatida rivojlantirish
Yevropa Ittifoqi (Yel) [3]	Platformali mehnat	<i>Platform Work Directive</i> , ish maqomini aniqlash va algoritmik shaffoflik	Platformalarda huquqiy aniqlik va barqarorlik	Platformali mehnatni differensial tartibga solish
Estoniya [9], [10]	Elektron shartnomalar va raqamli xizmatlar	<i>e-Business Register</i> , elektron imzo, <i>e-Financials</i>	Ro'yxatga olish va hisobot xarajatlarini kamaytirish	Yagona elektron reyestr va elektron shartnoma tizimini joriy etish
Janubiy Koreya [11]	Raqamli bandlik xizmatlari	MOEL-KEIS raqamli strategiyasi va <i>matching</i> tizimi	Kichik biznes uchun kadrlarni qidirish va qayta tayyorlash jarayonini soddalashtirish	Hududiy raqamli mehnat servislarini rivojlantirish
OECD umumiy yondashuvi [4], [5]	Kichik biznesni raqamlashtirish	Raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish, tashqi ekspertlarni jalb qilish, data va AI vositalari	Xarajatlarni kamaytirish va yangi daromad manbalarini yaratish	Kichik biznes uchun kompleks raqamli va tashkiliy qo'llab-quvvatlash paketlarini joriy etish

Tahlil natijalari ilg'or xorijiy tajribani O'zbekiston sharoitiga to'rt asosiy yo'nalish bo'yicha moslashtirish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi.

Birinchidan, huquqiy klassifikatsiyani aniqlashtirish zarur. Mehnat kodeksida masofaviy ish va moslashuvchan ish vaqti normalari mavjud bo'lsa-da, platformali mehnat, loyiha asosidagi mustaqil ijro hamda bog'liq *self-employment* o'rtasidagi huquqiy chegaralar amaliyotda yetarli darajada aniq belgilanmagan [17]. Shu sababli ilovaviy tartiblar doirasida nostandart bandlik shakllarining huquqiy klassifikatorini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, ro'yxatga olish va shartnoma tuzish jarayonlarini to'liq raqamlashtirish zarur. Estoniya tajribasi ko'rsatganidek, elektron imzo va elektron reyestrlar tranzaksiya xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi [9], [10]. O'zbekistonda o'zini o'zi band qilish bo'yicha soddalashtirilgan raqamli ro'yxatga olish tizimi allaqachon joriy etilgan [18], [19]; keyingi bosqichda esa kichik biznes va ijrochilar o'rtasidagi elektron shartnomalar, xizmat topshiriqlari, bajarilgan ishlar dalolatnomalari hamda to'lov tarixini yagona raqamli konturda qayd etish tizimini joriy etish zarur.

Uchinchidan, nostandart bandlikni ijtimoiy himoya tizimi bilan uzviy bog'lash muhim ahamiyat kasb etadi. Platformali yoki qisman bandlikni faqat soliq to'lash bilan cheklab qo'ymasdan, balki pensiya, kasallik, mehnatga layoqatsizlik va qayta tayyorlash xizmatlari bilan bog'langan "portativ" paketlar asosida tashkil etish lozim. Mazkur yondashuv nostandart bandlikni kichik biznes uchun faqat xarajatlarni kamaytirish vositasidan ko'ra barqaror mehnat institutiga aylantiradi [1], [3].


To'rtinchidan, raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish va kadrlar siyosatini kuchaytirish zarur. OECD tadqiqotlari kichik biznes subyektlarida raqamli vositalardan to'liq foydalanishga bilim va ko'nikmalar yetishmasligi to'sqinlik qilayotganini ko'rsatadi [5], [6]. Shu bois buxgalteriya outsorsingi, SMM, veb-dizayn, call-markaz xizmatlari,



tarjima, IT-qo'llab-quvvatlash (*IT support*), marketpleys savdosi hamda logistika dispetcherligi kabi yo'nalishlarda qisqa muddatli mikromalaka dasturlarini kengaytirish maqsadga muvofiq.

Beshinchidan, hududiy pilot loyihalarni joriy etish mumkin. Savdo, maishiy xizmatlar, ta'lim, media, konsalting va agroxizmatlar sohalarida qisman ish, masofaviy ish va loyiha asosidagi (*project-based*) ijro shakllari asosida mikro va kichik korxonalarni rag'batlantirish zarur. Mazkur yondashuv keyinchalik tarmoqlar kesimida samaradorlikni kompleks baholash imkonini beradi.

Quyidagi rasmda nostandart bandlik shakllarini O'zbekiston sharoitiga moslashtirishning konseptual modeli ifodalangan (2-rasm).



2-rasm. Nostandart bandlik shakllarini O'zbekiston sharoitiga moslashtirishning konseptual modeli³

Shu nuqtayi nazardan, ilg'or xorijiy tajribaning asosiy sabog'i nostandart bandlikni "huquqiy istisno" sifatida emas, balki raqamli iqtisodiyot, kichik biznes va ijtimoiy himoyani integratsiyalovchi gibrin institut sifatida ko'rishdan iborat. O'zbekistonda bunday yondashuv ro'yxatga olish jarayonlarini soddalashtirish, raqamli xizmatlarni rivojlantirish hamda minimal ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash bilan uyg'unlashtirilsa, kichik biznesning xarajat samaradorligi va bandlik sifati bir vaqtning o'zida yaxshilanishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini berdi.

Birinchidan, nostandart bandlik shakllari — masofaviy ish, qisman bandlik vaqti, platformali mehnat, loyiha asosidagi xizmatlar hamda bog'liq o'zini o'zi band qilish — kichik biznes rivoji uchun chekka emas, balki asosiy tashkiliy-iqtisodiy instrumentlardan biriga aylanmoqda.

Ikkinchidan, ilg'or xorijiy tajriba moslashuvchan mehnat shakllarining muvaffaqiyati ularning huquqiy maqomi, raqamli infratuzilma, ijtimoiy himoya va ko'nikmalar siyosati bilan uyg'unlashgan holda ta'minlanishini ko'rsatadi.

Uchinchidan, O'zbekiston rasmiy statistikasi kichik biznesning mehnat bozori va YaIMdagi ulushi juda yuqori ekanini, aholi daromadlarida o'zini o'zi band qilish ulushi esa sezilarli darajaga yetganini tasdiqlaydi [12]–[16]. Bu esa nostandart bandlikni tartibga solish va samarali qo'llash masalasini nazariy emas, balki amaliy iqtisodiy vazifaga aylantiradi.

To'rtinchidan, O'zbekistonda masofaviy ish, moslashuvchan ish vaqti hamda o'zini o'zi band qilish bo'yicha huquqiy baza mavjud bo'lsa-da, uning raqamli ro'yxatga olish, platformali mehnat va portativ ijtimoiy himoya tizimlari bilan integratsiyasi yetarli darajada rivojlanmagan [17]–[19].

Shundan kelib chiqib, maqolada quyidagi amaliy takliflar asoslandi: nostandart bandlik shakllarining huquqiy klassifikatorini joriy etish; kichik biznes va ijrochilar o'rtasida elektron shartnomalar hamda to'lov tarixini shakllantiruvchi yagona raqamli kontur yaratish; o'zini o'zi band qilganlar va platformali ijrochilar uchun portativ ijtimoiy himoya paketlarini ishlab chiqish; raqamli va boshqaruv ko'nikmalari bo'yicha mikromalaka dasturlarini kuchaytirish; tarmoq va hududlar kesimida pilot loyihalarni amalga oshirish.

3 Manba: muallif ishlanmasi.



Aynan shunday yondashuv nostandart bandlikni norasmiylik manbai sifatida emas, balki kichik biznesni rivojlantiruvchi va mehnat bozori moslashuvchanligini oshiruvchi zamonaviy institutga aylantirishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

[1] International Labour Organization. Non-standard employment around the world: Understanding challenges, shaping prospects. — Geneva: ILO, 2016. URL: https://www.ilo.org/sites/default/files/wcmsp5/groups/public/%40dgreports/%40dcomm/%40publ/documents/publication/wcms_534496.pdf (murojaat sanasi: 2026-04-20).

[2] Eurofound. Non-standard forms of employment: Recent trends and future prospects. — Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017. URL: <https://assets.eurofound.europa.eu/f/279033/f051df6c97/ef1746en.pdf> (murojaat sanasi: 2026-04-20).

[3] European Commission. The future of work: platform work and labour rights. URL: https://employment-social-affairs.ec.europa.eu/policies-and-activities/rights-work/future-work_en (murojaat sanasi: 2026-04-20).

[4] OECD. The Digital Transformation of SMEs. — Paris: OECD Publishing, 2021. URL: https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2021/02/the-digital-transformation-of-smes_ec3163f5/bdb9256a-en.pdf (murojaat sanasi: 2026-04-20).

[5] OECD. SME Digitalisation to Manage Shocks and Transitions: 2024 OECD D4SME Survey. — Paris: OECD, 2024. URL: https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2024/09/sme-digitalisation-to-manage-shocks-and-transitions_735fc44d/eb4ec9ac-en.pdf (murojaat sanasi: 2026-04-20).

[6] OECD. Digital Skills for Private Sector Competitiveness in Uzbekistan. — Paris: OECD Publishing, 2023. URL: https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2023/05/digital-skills-for-private-sector-competitiveness-in-uzbekistan_8f1719a7/6c54f447-en.pdf (murojaat sanasi: 2026-04-20).

[7] Government of the Netherlands. The Netherlands at Work. URL: <https://www.government.nl/government-coalition-agreement/the-netherlands-at-work> (murojaat sanasi: 2026-04-20).

[8] OECD. Part-time and Partly Equal: Gender and Work in the Netherlands. — Paris: OECD Publishing, 2019. URL: https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2019/09/part-time-and-partly-equal-gender-and-work-in-the-netherlands_3c59c7af/204235cf-en.pdf (murojaat sanasi: 2026-04-20).

[9] Registrate ja Infosüsteemide Keskus (RIK). E-Business Register Portal. URL: <https://www.rik.ee/en/e-business-register/e-business-register-portal> (murojaat sanasi: 2026-04-20).

[10] Registrate ja Infosüsteemide Keskus (RIK). Establishment | e-Äriregister. URL: <https://ariregister.rik.ee/eng/application/start> (murojaat sanasi: 2026-04-20).

[11] OECD. Strengthening Active Labour Market Policies in Korea. — Paris: OECD, 2024. URL: https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2024/06/strengthening-active-labour-market-policies-in-korea_2d84239b/44cb97d7-en.pdf (murojaat sanasi: 2026-04-20).

[12] National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. Main indicators of small business entities in the Republic of Uzbekistan (as of 2025-07-01). URL: https://stat.uz/img/press-relizlar/kb_eng_p14092.pdf (murojaat sanasi: 2026-04-20).

[13] O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami bandlikdagi ulushi. URL: https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_274.pdf (murojaat sanasi: 2026-04-20).

[14] O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Kichik tadbirkorlik subyektlarida band bo'lganlar soni. URL: https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_425.pdf (murojaat sanasi: 2026-04-20).

[15] O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Kichik tadbirkorlik subyektlarining YalMdagi ulushi. URL: https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_420.pdf (murojaat sanasi: 2026-04-20).

[16] National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. Total income of the population of the Republic of Uzbekistan, January–December 2025. URL: https://stat.uz/img/news/sovokupnye-dokhody-naseleniya-en--24_01_2025_p34170.pdf (murojaat sanasi: 2026-04-20).

[17] O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, 2022-10-28, № O'RQ-798. URL: <https://lex.uz/docs/6257288> (murojaat sanasi: 2026-04-20).

[18] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori PQ-4742, 2020-06-08. "Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". URL: <https://lex.uz/docs/4849607> (murojaat sanasi: 2026-04-20).

[19] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 806-son qarori, 2020-12-23. "O'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida faoliyatni amalga oshirish tartibi to'g'risida". URL: <https://lex.uz/acts/5182451> (murojaat sanasi: 2026-04-20).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4 (2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>